Materiallar to’plami · Conference Proceedings
”ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 54

ELAEAGNUS ANGUSTIFOLIA (TOR BARGLI JIYDA) O’SIMLIGINING XALQ TABOBATIDA QO’LLANILISHI.

Sevaraxon O’ktamjon qizi Dadajonova[a,*], Manzuraxon Aminovna Marupova[b]

[a] *Farg’ona davlat universiteti 1-kurs tayanch doktaranti*
[b] *FJSTI Tibbiy va biologik kimyo kafedrasi dotsenti, q/x.f.n.,*
✉ dadajonovasevara10@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yurtimizda florasida o’suvchi Elaeagnus angustifolia (tor bargli jiyda) o’simligining botanikasi, tarqalishi, kimyoviy tarkibi va xalq tabobatidagi ahamiyati haqida adabiyotlar tahlili asosida olingan ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar

Elaeagnus angustifolia, kimyoviy tarkib, flavonoidlar, xalq tabobati, biologik faol moddalar.

DOI: 10.5281/zenodo.21743680

KIRISH

Dorivor o‘simliklar inson salomatligini saqlash va turli kasalliklarning oldini olish hamda davolashda qadimdan muhim o‘rin egallab kelmoqda. So‘nggi yillarda biologik faol moddalarga boy o‘simliklarni kimyoviy va farmakologik jihatdan chuqur o‘rganishga oid tadqiqotlar ortib bormoqda. Buning asosiy sababi sintetik dori vositalariga nisbatan tabiiy preparatlarning kamroq nojo‘ya ta’sirga ega ekanligi, biologik faolligining yuqoriligi hamda farmatsevtika sanoati uchun istiqbolli xomashyo manbai hisoblanishidir.

O‘zbekiston florasi dorivor o‘simliklarga nihoyatda boy bo‘lib, ulardan biri *Elaeagnus angustifolia L.* (tor bargli jiyda) hisoblanadi.. Jiyda mevasi, bargi, guli va po‘stlog’i flavonoidlar, fenolik birikmalar, vitaminlar, polisaxaridlar, organik kislotalar, efir moylari va boshqa biologik faol moddalar mavjudligi ilmiy tadqiqotlar orqali tasdiqlangan. Ushbu birikmalar antioksidant, yallig‘lanishga qarshi, antimikrob, immunomodulyator va boshqa farmakologik xususiyatlarni namoyon etadi. Bugungi kunda *Elaeagnus angustifolia* o‘simligining kimyoviy tarkibi va biologik faolligini o‘rganish, uning xalq tabobatidagi qo‘llanilishini ilmiy asoslash hamda yangi fitopreparatlar yaratishda foydalanish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. *Elaeagnus* turkumi 40 ga yaqin turdan iborat bo‘lib, O‘rta yer dengizi hududi, mo‘tadil va tropik Osiyoda tarqalgan. Bizda asosan *elaeagnus angustifolia, elaeagnus orientalis, elaeagnus argentea* kabi bir necha turlari keng tarqalgan. Elaeagnus so’zi yunoncha “elaie” — zaytun va “agnos” — toza, pok ma’nolaridan kelib chiqqan.

Elaeagnus angustifolia (tor bargli jiyda) – jiydadoshlar oilasiga mansub, balandligi 3-7 metr keladigan butasimon yoki kichik daraxt. O’simlikning po‘stlog‘i qizg‘ish-jigarrang, tikansiz yoki o‘tkir tikanli (0,7–3 sm) hisoblanadi. Bargi lansetsimon, cho‘ziq chiziqsimon yoki tuxumsimon uzunligi 2,5–7 sm, barg eni 0,4–1,5 sm, barg uchlari o‘tkir yoki to‘mtoq. Barg bandi 0,5 sm, plastinkadan 4–5 marta qisqa. Yirik barglari 6,5–10 sm uzunlikda, 2–4 sm kenglikda. Gullari xushbo‘y hidli, barg qo‘ltig‘ida 1–3 tadan joylashgan. Gul bandi qisqa (2 mm), gulqo‘rg‘oni qo‘ng‘iroqsimon yoki keng qo‘ng‘iroqsimon, yuzasi kumushsimon-oq, zich oq tangachalar bilan qoplangan, uzunligi 5–6 mm, kengligi 2,5–3 mm sariq rangli. Changchilari 4 ta, qisqa ipli. Mevasi cho‘ziq yoki tuxumsimon, ba’zan tor silindrsimon hamda ikkala tomondan o‘tkir yoki to‘mtoq. Asosan aprel va may

oylarida gullab, sentyabr-oktyabr oylarida mevasi pishadi. O'simlik asosan daryo, dengiz va ko'l bo'ylarida, cho'l daryolari vodiylarida, o'rmonlarda, sho'rxok yerlarda, qumli hududlarda o'sadi. Yuqori Volga, Volga-Don, Qora dengiz bo'yi, Kavkaz, G'arbiy Sibir, Markaziy Osiyo: Aral-Kaspiy, Qizilqum, Qoraqum, Sirdaryo, Pomir-Olay uchraydi. Ushbu tur ayrim davlatlarda invaziv tur sifatida uchraydi. [1.2.3]

Tor bargli jiyda mevasi tarkibida 40–65% gacha qand moddalar mavjud bo'lib, ularning asosiy qismini taxminan 20% glyukoza va 10% dan ortiq fruktoza tashkil qiladi. Shuningdek, meva tarkibida 11% oqsil, 40% gacha erkin hamda bog'langan taninlar, rang hosil qiluvchi moddalar, kletchatka, yog'lar, oshlovchi birikmalar va turli organik kislotalar aniqlangan. Barglari tarkibida 0,1–0,3% miqdorda askorbin kislotasi, oshlovchi va rang beruvchi moddalar, polisaxaridlar, aminokislotalar, flavonoidlar, kumarinlar hamda turli vitaminlar mavjudligi aniqlangan. Meva eti tarkibida esa kaliy va fosfor tuzlari bilan birga B1, B2, PP va E vitaminlari uchraydi [4.5]. O'simlik gullaridan ajratilgan efir moylari tarkibida etilsinnamat (60%) asosiy ulushni egallab, undan tashqari geksagidrofarnezil atseton (9,99%), palmitin kislotasi (5,20%) va fitol (3,29%) ham aniqlangan. Bargidagi efir moylarida esa etilsinnamat (37,27%), fitol (12,08%) va Z-3-geksenilbenzoat (7,65%) yetakchi komponentlar sifatida qayd etilgan. *Elaeagnus angustifolia* tarkibida uchrovchi ko'plab organik birikmalardan DL-α-tokoferol (39,6325%), stigmasterol (17,1564%) hamda oktakozan (9,8456%) nisbatan yuqori miqdorda uchrashi kuzatilgan [6].

Elaeagnus angustifolia o'simligi qadimdan xalq tabobati ko'plab kasalliklarni davolashda foydalanib kelinadi. Abu Ali Ibn Sino qonni tozalash, ich ketish, ruhni tetik qilish, ishtaha ochishda jiydadan keng foydalangan. Jiyda mevasi servitamin bo'lganligi tufayli ilmiy meditsinada kamqonlik, teri qazg'oqlanishi, bo'y o'smasligida, organizmda tuz-suv balansini saqlashda, fikrlash qobiliyatini oshirishda va yurak faoliyatini kuchaytirish maqsadida iste'mol qilish tavsiya etilgan. Shuningdek, xalq tabobatida jiyda mevasining xususiyatlaridan yana biri bolalarda uchraydigan ich ketish kasalligiga qarshi yaxshi davo hisoblangan. Uning damlamasi nafas yo'llari shamollaganda, oshqozon-ichak va radikulit kasalliklarini davolashda foyda beradi [7.8.9.10]. O'simlikning yangi barglari revmatizm, podagra, radikulit, yallig'lanishni va tez davolanishni yengillashtirish uchun yiringli yaralarga qo'llaniladi. Maydalangan so'rg'ich mevalari va barglari gemoroy uchun yaxshi vositadir. Meva qobiqning damlamasi qon ketishini to'xtatish, bezgak va gipertenziya uchun sharbatlari samarali bo'ladi. Terapevtik maqsadlarda barglar, mevalar, gullar ishlatiladi [11.12].

Elaeagnus angustifolia tarkibida flavonoidlar, fenolik birikmalar hamda C va E vitaminlari kabi kuchli antioksidant moddalar mavjud. Bundan tashqari, o'simlik ekstraktlari yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega bo'lib artrit, saratonga qarshi ta'siri, ovqat hazm qilishni qo'llab-quvvatlashi, yurak-qon tomir tizimini himoya qilishi hamda immunitetni kuchaytirishi kabi ko'plab kasalliklarga davo sifatida foydalanish xususiyatlari qayd etilgan. *Elaeagnus angustifolia* kuyishlar, nevrasteniya, ginekologik ajralmalar hamda oshqozon bilan bog'liq kasalliklarni davolashda ham qo'llanadi. Barglari esa yara bitishini tezlashtirish, kollagen hosil bo'lishini rag'batlantirish, immun tizimini qo'llab-quvvatlash va antimikrob ta'sir ko'rsatish xususiyatiga ega [13.14.15]. Tor bargli jiyda mevasi, bargi va gullari isitmani tushiruvchi, siydik haydovchi, yallig'lanishga qarshi, astma, diareya, isitma, meteorizm, qusishni to'xtatuvchi sariqlik, ko'ngil aynishi, qoqshol, siydik chiqarish yo'llari kasalliklari, og'riq qoldiruvchi va mikroblarga qarshi ta'siri tufayli an'anaviy tibbiyotda qo'llaniladi. Yana bir tadqiqotda ushbu o'simlik organlaridan olingan ekstraktlar zamburug'larga va bakteriyalarga qarshi faollik ko'rsatishi aniqlangan [16.17.21.22]. Jiyda mevasidan olinadigan pshiatin preparati tibbiyotda meda-ichak kasalliklarini davolashda, og'iz bo'shligi yallig'langanda foydalaniladi [18].

Yaqin sharq mamlakatlarida *elaeagnus angustifolia* gullari "Zhourat" kabi o'simlik choylariga qo'shilib tinchlantiruvchi, ovqat hazm qilishni yaxshilovchi va balg'am ko'chiruvchi vosita sifatida iste'mol qilinadi [19].

M.H.Nasrabadi va uning hamkasblari (2021) tomonidan jiyda o'simligining butun meva po'sti va urug'idan tayyorlangan o'simlik ekstraktlari sichqonlarda o'tkazilgan osteoartrit kasalligiga qarshi kversitin bilan birgalikda ibuprofindan ko'ra samarali ta'sir qilganligi aniqlangan.[20].

XULOSA

Adabiyotlar tahlili *Elaeagnus angustifolia L.* biologik faol moddalarga boy va istiqbolli dorivor o'simlik ekanligini ko'rsatadi. Uning tarkibidagi flavonoidlar, fenolik birikmalar, vitaminlar, efir moylari hamda boshqa

biologik faol komponentlar antioksidant, yallig‘lanishga qarshi, antimikrob va yara bitkazuvchi xususiyatlarni namoyon etadi. Ilmiy tadqiqotlar va xalq tabobati tajribasi ushbu o‘simlikning turli kasalliklarni davolashdagi terapevtik salohiyatini tasdiqlaydi. Kelgusida uning kimyoviy tarkibini chuqur o‘rganish, farmakologik ta'sir mexanizmlarini aniqlash hamda samarali fitopreparatlar yaratish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Афанасьев, К. С., Борисова, А. Г., Васильев, В. Н., Горшкова, С. Г., Ильин, М. М., Клоков, М. В., Малеев, В. П., Муравьева, О. А., Победимова, Е. Г., Пояркова, А. И., Проханов, Я. И., Шишкин, Б. К., Штейнберг, Е. И., & Юзепчук, С. В. (1949). *Флора СССР* (Том XV, сс. 521–525). Издательство Академии наук СССР.
2. Абдуллаева, М. Н., Адылов, Т. А., Бутков, А. Я., Виноградова, Р. М., Клюйков, Е. В., Ковалевская, С. С., Ли, А. Д., Набиев, М. М., Насимова, Т. Г., Пахомова, М. Г., Пименов, М. Г., Саркисова, С. А., Туляганова, М., Филимонова, З. И., Цукерваник, Т. И., & Юнусов, С. Ю. (1983). *Определитель растений Средней Азии: Критический конспект флоры* (Том VII, с. 149). Издательство «Фан» Узбекской ССР.
3. Bochansev, B. П., Butkov, A. Ю., Vvedenskiy, A. И., Drobov, B. П., Korovin, E. П., Korotkova, E. E., Kudryashev, C. H., Linchevskiy, И. A., Mayer, Ф. M., Paziy, B. K., Popov, M. Г., Rusanov, Ф. H., & Sumnevich, Г. П. (1959). *Флора Узбекистана* (Том IV, с. 229). Издательство Академии наук Узбекской ССР.
4. Xojimatov O.K., Haydarov X.Q., Xamrayeva D.T., Imomova D.A., Xujanov A.N. O'zbekiston dorivor o'simliklar atlasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand. SamDU nashryoti, 2021. – 219 bet.
5. Bucur, L., Tarălungă, G., Alexandrescu, R., Negreanu, T., & Istudor, V. (2010). [Evaluation of biological activity of a dermatological preparation with elaeagnus angustifolia flowers soft extract]. *PubMed*, *112*(4), 1098–1103. https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/20209794
6. Baisalova, G. Zh., Zhumadil, A. S., Torsykbaeva, B. B., Sadyrbekov, D. T., & Umerdzhanova, K. T. (2025). *Chemical composition of fruits of Elaeagnus angustifolia*. Reports of the National Academy of Sciences of the Republic of Kazakhstan, 1(353), 173–183. https://doi.org/10.32014/2025.2518-1483.333
7. Абу Али Ибн Сина (Авиценна) Канон врачебной науки. 2-е изд-е: В 5 кн.: Пер. с арабского. Ташкент: «Фан», 1981. - Книга II. - С. 674-675.
8. Servettaz M.C. Monographic des Elaeagnaceae. - Dresden. 1911. - P. 217.
9. Wang Y., Qin Y., Du Z., Yan G. Genetic diversity and differentiation of the endangered tree Elaeagnus mollis Diels (Elaeagnus L.) as revealed by simple sequence repeat (SSR) markers. 2012. Biochem Syst Ecol 40: - P. 25-33.
10. Stannard, Mark; Ogle, Dan; Holzworth, Larry; Scianna, Joe; Sunleaf, Emmy. History, biology, ecology, suppression and revegetation of Russian-olive sites (Elaeagnus angustifolia L.). Technical Notes. Plant Materials No. 47.
11. Кузьмина Ж.В. Методика определения и оценки нарушений пойменных экосистем при гидротехническом воздействии / Кузьмина Ж.В., Трешкин С.Е. Аридные экосистемы. 2008. Т. 14. №35-36. – С. 94-110.
12. Asadiar L.S., Rahmani F., Siami A. Assessment of genetic diversity in the Russian olive (Elaeagnus angustifolia) based on ISSR genetic markers. Rev Cienc Agron 44: 2012 - P. 310–316.
13. Tehranizadeh ZA, Baratian A, Hosseinzadeh H. Russian olive (*Elaeagnus angustifolia*) as a herbal healer. *Bioimpacts*. 2016;6:155. doi:10.15171/ bi.2016.22
14. Hamidpour R, Hamidpour S, Hamidpour M, et al. Russian olive (*Elaeagnus angustifolia* L.): from a variety of traditional medicinal applications to its novel roles as active antioxidant, anti-inflammatory, anti-mutagenic and analgesic agent. *J Traditional Complementary Med.* 2017;7:24–29. doi:10.1016/j.jtcme.2015.09.004

15. Natanzi MM, Pasalar P, Kamalinejad M, et al. Effect of aqueous extract of *Elaeagnus angustifolia* fruit on experimental cutaneous wound healing in rats. *Acta Med Iran.* 2012;50:589–596.18
16. Nazir N, Zahoor M, Nisar M. A review on traditional uses and pharmacological importance of genus Elaeagnus species. *Bot Rev*. 2020;86:247–280. doi:10.1007/s12229-020-09226-y
17. Saboonchian F, Jamei R, Sarghein SH. Phenolic and flavonoid content of *Elaeagnus angustifolia* L.(leaf and flower). *Avicenna J Phytomed*. 2014;4:231
18. I.R.Asqarov // Tabobat qomusi. Mumtoz so'z.-Toshkent-2019 353-b
19. Obón C, Rivera D, Alcaraz F, Attieh L. Beverage and culture Zhourat, a multivariate analysis of the globalization of a herbal tea from the Middle East. *Appetite*. 2014;79:1–10. doi:10.1016/j.appet.2014.03.024
20. Nasrabadi, M. H., Parsivand, M., Mohammadi, N., & Moghaddam, N. A. (2021). Comparison of Elaeagnus angustifolia L. extract and quercetin on mouse model of knee osteoarthritis. Journal of Ayurveda and Integrative Medicine, 13(2), 100529. https://doi.org/10.1016/j.jaim.2021.10.001
21. Karimi G., Hosseinzadeh H., Rassoulzadeh M., Razavi B., Taghiabadi E. (2010). Antinociceptive effect of Elaeagnus angustifolia fruits on sciatic nerve ligated mice. Iran. J. Basic Med. Sci.,13(3): 97.101. https:// doi.org/10.22038/ijbms.2010.5094
22. Khan S.U., Khan A.U., Shah A.U., Shah S.M., Hussain S., Ayaz M., Ayaz S. (2016). Heavy metals content, phytochemical composition, antimicrobial and insecticidal evaluation of Elaeagnus angustifolia. Toxicol. Ind. Health, 32(1), Q. 154 161.https://doi.org/10.1177/0748233713498459